

O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va
iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasidagi
Xavflarni boshqarish qo'mitasining 2026-yil
30-yanvardagi 08-01-18-son bayoniga
2-ilova

**Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasida xavflarni kamaytirish
(oldini olish va bartaraf etish) yuzasidan
ChORA-TADBIRLAR REJASI**

T/r	Xavf nomi	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Amalga oshirish muddati	Mas'ul tarkibiy bo'linma
1	Amalga oshirilgan davlat xaridlarini barchasini to'liq o'rganish imkoniyati yo'qligi.	Davlat xaridlarida raqobat qonunchiligi talablariga rioya etilganligi holatlarini avtomatik tarzda aniqlash imkoniyatini yo'lga qo'yish.	1. Qo'mitaning "Fair Tech" axborot tizimida davlat xaridlari operatorlari tomonidan taqdim etilayotgan ma'lumotlar asosida savdolarida qonunbuzilishi alomatlari yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlarni ro'yxatini shakllantirish; 2. Ro'yxat asosida aniqlangan alomatlarni belgilangan tartibda ko'rib chiqish va monitoring qilish samaradorligini oshirish.	2026-yil davomida	Insofsiz raqobat amaliyotlariga, til biriktirishlar va kartel kelishuvlarga qarshi kurashish boshqarmasi
2	O'rganish va tahlillar inson omili orqali amalga oshirilishi, bu boradagi faoliyatning avtomatlashtirilmaganligi.				
3	Mutaxassislarni doimiy ravishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan jalb qilinishi natijasida boshqarmaning asosiy vazifa va funksiyalarning o'z vaqtida bajarilmasligi.	Nazorat tadbirlariga Qo'mita xodimlarini jalb qilish tartibi va muddatlari bo'yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda kelishuv bitimini tuzish.	Kelishuv bitimini tuzish yuzasidan yoki mavjud hamkorlik to'g'risidagi tartibni qayta ko'rib chiqish bo'yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlarga tegishli xatlarni yuborish.	2026-yil 1-yarim yillikda	
4	Insofsiz raqobat, til biriktirishlar va kartel kelishuvlari holatlari bo'yicha qonun buzilishida xo'jalik yurituvchi subyektlarning ushbu qonunchilik talablarini buzgan davriga tovarni realizatsiya qilishdan olingan tushumni olishni imkoniyati yuqligi sababli qo'llaniladigan moliyaviy jarima summasini aniq kiritish imkoniyati yo'qligi.	Soliq organi bilan hamkorlikda ishlarni yo'lga qo'yish.	Soliq organiga Qo'mitaning "Fair Tech" axborot tizimida xo'jalik yurituvchi subyektlarning realizatsiya qilingan tovar (ish, xizmat)lari bo'yicha tushumi to'g'risidagi ma'lumotlarni integratsiyasini yo'lga qo'yish uchun tegishli xatlarni yuborish.	2026-yil 1-yarim yillikda	

T/r	Xavf nomi	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Amalga oshirish muddati	Mas'ul tarkibiy bo'linma
5	Reklama bozor va kreativ sohalarni rivojlantirishda yagona davlat siyosatini olib borish va mazkur masalalarda vakolatli davlat organlari va tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirishni amalga oshirishda hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.12.2025-yildagi PQ-388-sonli qarorga asosan tashqi reklama obyektlarini (konstruksiylarini) monitoring qilish va xatlovdan o'tkazishda Qo'mitaning hududiy boshqarmalarida kadrlar yetishmaslik xavfi.	Qo'mitaning 2025-yil 22-dekabrda 311-ShT-sonli buyrug'iga ko'ra Qo'mita markaziy apparatining yangilangan tuzilmasi bo'yicha "Reklama bozori va kreativ sohalarni rivojlantirish" bo'limiga reklama bozorini nazorat qilishda qo'shimcha kadrlar qabul qilish.	Davlat fuqarolik xizmati vakant lavozimlarining yagona ochiq portali orqali kadrlarni tanlov asosida qabul qilish.	2026-yil mart	Reklama bozori va kreativ sohalarni rivojlantirish bo'limi
6	O'zbekiston Respublikasi hududida ijtimoiy tarmoqlar orqali qimor o'yinlari va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlar reklamasini tarqatuvchi subyektlarga va mas'ul shaxslariga aniqlik kiritishning imkonsizlik xavfi.	O'zbekiston Respublikasi hududida ijtimoiy tarmoqlar orqali qimor o'yinlari va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlar reklamasini tarqatuvchi subyektlarga va mas'ul shaxslariga aniqlik kiritish va unga chora ko'rish.	O'zbekiston Respublikasi "Reklama to'g'risida"gi Qonuning 46-moddasiga ko'ra (Qimor o'yinlari va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlar, shu jumladan telekommunikatsiya tarmoqlaridan, shuningdek Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda tashkil etiladigan qimor o'yinlari va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlar reklamasiga yo'l qo'yilmaydi) O'zbekiston Respublikasi hududida ijtimoiy tarmoqlar orqali qimor o'yinlari va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlar reklamasini tarqatuvchi subyektlarga mas'ul shaxslariga aniqlik kiritishning imkoni yo'qligi, ushbu subyektlar O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida target reklama asosida amalga oshirilishi sababli O'zbekiston Respublikasi Ommaviy kommunikatsiyalar masalalari bo'yicha markaz bilan hamkorlikda aniqlangan holatlar bo'yicha internet saytlari va sahifalarini bloklash choralari ko'rish.	2026-yil 1-iyul	
7	Davlat ishtirokidagi korxonalarni xususiyashtirish bo'yicha taklif ishlab chiqishda aniq bir mezonlar mavjud emasligi.	Davlat ishtirokidagi korxonalarni xususiyashtirish bo'yicha taklif ishlab chiqish uchun mezonlar aniqlashtirish.	Davlat ishtirokidagi korxonalarni xususiyashtirish bo'yicha taklif ishlab chiqish uchun Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasini ishlab chiqish.	2026-yil 3-chorakda	Iqtisodiy konsentratsiya va iqtisodiyotda davlat ishtirokini

T/r	Xavf nomi	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Amalga oshirish muddati	Mas'ul tarkibiy bo'linma
8	Iqtisodiy konsentratsiya bitimi tuzilganda, unga oldindan rozilik olinmaslik holati.	Ushbu bitimlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishda tegishli choralarni ko'rish.	Soliq qo'mitasi va Adliya vazirligining tegishli dasturlarini Qo'mitaning "FairTech" tizimiga integratsiya qilish ishlarini amalga oshirish.	2026-yil 2-chorakda	nazorat qilish boshqarmasi
9	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26 dekabrda PQ-388-sonli qarorga asosan, Raqobat holati to'liq tahlil qilinadigan 30 ta tovar, moliya va raqamli bozorlar to'liq tahlil qilinmaslik xavfi.	Xo'jalik yurituvchi subyektlardan va vazirlik va idoralardan olinadigan ma'lumotlarni elektronlashtirish.	Soliq qo'mitasi, Milliy statistika qo'mitasining tegishli dasturlarini Qo'mitaning "FairTech" tizimiga integratsiya qilish ishlarini amalga oshirish.	2026-yil 2-chorakda	
10	Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarning narx shakllanishi "zanjiri"ni (ishlab chiqaruvchi yoki import – birja – ulgurji – chakana) tahlil qilishda, xususan mahsulotlar narxlarining keskin tebranishiga ta'sir etayotgan omillarni, ularning kelib chiqish sabablarini, shakllangan yakuniy ustamani tezkor tahlil qilish maqsadida bozorlardagi hamda savdo tarmoqlaridagi chakana narxlarni tezkor o'rganish imkoniyati mavjud emas. Jumladan hududiy organlar tomonidan ishchi kuchi yetishmasligi bu borada jismonan hududni to'liq qamrab olish imkoniyati yo'qligi sababli ma'lumotlarni real emas balki formal tusda va kech shakllanish xavfini yuzaga keltirmoqda.	Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarning narxlarini shakllanishi zanjirini shaffofligini ta'minlash maqsadida narx shakllanishi "zanjiri"ning barcha bo'g'inlarini (ishlab chiqaruvchi yoki import – birja – ulgurji – chakana) monitoring qilish imkoniyatini beruvchi raqamli monitoring modulini ishga tushirish.	1. Monitoring qilish imkoniyatini beruvchi raqamli monitoring modulini ishga tushirish bo'yicha tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda texnik shart ishlab chiqish. 2. Mazkur modulni dastlab 3 oygacha bo'lgan muddatda test sinov tariqasida amaliyotda qo'llab ko'rish. 3. Test sinov davrida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etgan holda amaliyotga to'liq tatbiq etish.	2026-yil aprel	Tovar-xom ashyo birjalari va iste'mol bozorlarida narxlarni nazorat qilish boshqarmasi
11	Tovar-xom ashyo birjalarida real vaqt rejimida yuqori likvidli va (yoki) monopol mahsulotlarning narxlari dinamikasini, hajm o'zgarishlarini tahlil qilish hamda o'zgaruvchanlikni prognoz qilish, ishtirokchilarning xatti-harakatlarini kuzatib borish, spekulativ sxemalarni aniqlash ishlarini tezkor ravishda amalga oshirish imkoniyatlari mavjud emas va bu bir oz vaqt talab etadi. Bu esa o'z navbatida narxlarning sun'iy oshirilishiga sababchi bo'layotgan,	Manipulyativ (spekulyativ) harakatlarning oldini olish maqsadida tovar-xomashyo birjalariga sun'iy intellekt tizimini joriy etish.	1. Sun'iy intellekt tizimini ishga tushirish bo'yicha tovar-xom ashyo birjalari bilan birgalikda texnik shart ishlab chiqish. 2. Mazkur tizimni dastlab 3 oygacha bo'lgan muddatda test sinov tariqasida amaliyotda qo'llab ko'rish. 3. Test sinov davrida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etgan holda amaliyotga to'liq tatbiq etish.	2026-yil Iyun	

T/r	Xavf nomi	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Amalga oshirish muddati	Mas'ul tarkibiy bo'linma
	insofsiz ishtirokchilarga tezkor choralar ko'rib borish mexanizmini kechiktirmoqda.				
12	Forvard va spot shartnomalari bo'yicha mahsulotlarni belgilangan muddatlarda yuklab jo'natilishini o'rganishda ma'lumotlar faqat birjalarga so'rov yuborish orqali olinib, tahlil qilinmoqda. Bu esa o'z navbatida ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan yuklab jo'natish shartlariga amal qilmasligi natijasida Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarini buzilishiga olib keluvchi omillarni tezkor va barvaqt aniqlash imkoniyatini cheklamoqda.				
13	Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari buzilganligi aniqlangan taqdirda, Qo'mita tomonidan qonunchilik hujjatlariga muvofiq nazorat qiluvchi organ sifatida choralar qo'llashda yetarlicha vakolat yaratilmagan. Amaldagi mexanizm bo'yicha chora qo'llash vakolati faqat maxsus vakolatli davlat organi va birjalarda mavjud. Bu esa o'z navbatida ichki nazorat tizimini xalqaro standartlarga muvofiq samarali tashkil etilishiga yetarlicha xavf tug'dirmoqda.	Tovar-xom ashyo birjalari a'zolari uchun jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalarini (ro'yxat raqami 2038, 06.11.2009 y.) takomillashtirish.	1. Tovar-xom ashyo birjalari a'zolari uchun ichki nazorat qoidalarini amaldagi tahririni FATFning tavsiyalariga muvofiqligini tahlil qilish. 2. Amaldagi normaga FATFning tegishli tavsiyalarini implementatsiya qilish choralarini ko'rish, xususan qaror loyihasini tayyorlash. 3. Qaror loyihasida birja a'zolariga nisbatan chora qo'llash vakolatlarini Qo'mitaga o'tkazilishini nazarda tutish. 4. Qaror loyihasini belgilangan tartibda Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tkazish.	2026-yil May	
14	Devonxonaga kelib tushadigan hujjatlar asosiy qismi E-XAT himoyalangan elektron dastur orqali qabul qilinadi hamda jo'natma hujjatlar ham yuboriladi. Ushbu dastur ko'pgina holatlarda ishlamay qolganda hujjatlarni o'z vaqtida ro'yxatdan o'tkazilishi kechiktirilishi holatlari mavjud	E-XAT himoyalangan elektron dasturini uzluksiz ishlash choralarini ko'rish	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni joriy etish va raqamlashtirish bo'limi Devonxona bilan birgalikda "UNICON.UZ-FAN-TEXNIKA VA MARKETING TADQIQOTLARI MARKAZI" MChJ bilan birgalikda Ye-XAT himoyalangan elektron dasturini uzluksiz ishlash choralarini ko'rish.	2026-yil may oyiga qadar	Devonxona, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni joriy etish va raqamlashtirish bo'limi,

T/r	Xavf nomi	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Amalga oshirish muddati	Mas'ul tarkibiy bo'linma
15	Devonxona xodimlari tomonidan kirish hujjatlari EDO.IJRO.UZ elektron dasturida amalga oshiriladi. Ushbu dastur ko'pgina holatlarda ishlamay qolganda hujjatlarni o'z vaqtida ro'yxatdan o'tkazilishi kechiktirilishi, bitta hujjatni ikki va undan ortiq saqlanib qolishi, kiritilgan hujjatlarni umuman dasturdan yo'qolib qolishi holatlari mavjud.	EDO.IJRO.UZ elektron dasturini uzluksiz ishlash choralari ko'rish	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni joriy etish va raqamlashtirish bo'limi Devonxona bilan birgalikda "UNICON.UZ-FAN-TEXNIKA VA MARKETING TADQIQOTLARI MARKAZI" MChJ bilan birgalikda EDO.IJRO.UZ elektron dasturini uzluksiz ishlash choralari ko'rish.	2026-yil may oyiga qadar	Tarkibiy bo'linmalar
16	Jo'natma hujjatlar hybrid.pochta.uz - Pochta jo'natmalarini Yagona milliy tizimi orqali amalga oshirilganda tizim ishlamay qolishi natijasida hujjatlar o'z vaqtida jo'natish imkoniyati kechiktirilishi mumkin	hybrid.pochta.uz-pochta jo'natmalarini yagona milliy tizimini uzluksiz ishlash choralari ko'rish	Devonxona "O'zbekiston pochta" AJ "TOSHKENT POCHTA MTI" filiali bilan birgalikda hybrid.pochta.uz - pochta jo'natmalarini yagona milliy tizimini uzluksiz ishlash choralari ko'rish.	2026-yil aprel oyiga qadar	
17	Qo'mita tarkibiy bo'linmalarida saqlash muddati tugagan hujjatlarni Idoraviy arxivga ilmiy-texnik ishlov berish uchun topshirilishini kechiktirish holatlari mavjud.	Saqlash muddati tugagan hujjatlarni Idoraviy arxivga ilmiy-texnik ishlov berish uchun topshirilishini ta'minlash	Saqlash muddati tugagan hujjatlarni Qo'mita tarkibiy bo'linmalari tomonidan idoraviy arxivga o'z muddatlarida topshirish choralari ko'rish	2026-yil mart oyiga qadar	
18	Qo'mita hududiy organlari, markaziy apparat tarkibiy bo'linmalari hamda tizim tashkilotlari rahbarlari tomonidan o'z vakolatlari doirasida amalga oshirilayotgan faoliyat natijalari bo'yicha axborot materiallari keyslar ko'rinishida o'z vaqtida taqdim etilmasligi natijasida jamoatchilikka qo'mita funksional vazifalari yuzasidan ma'lumotlarni muntazam taqdim etilmasligi xavfi mavjudligi	Qo'mita hududiy organlari, markaziy apparat tarkibiy bo'linmalari hamda tizim tashkilotlari faoliyati natijalarini baholash hamda ularni natijaviylik ko'rsatkichlari asosida keyslar shaklida rasmiylashtirish tizimini joriy etish, shuningdek mazkur ko'rsatkichlarni KPI va qo'shimcha rag'batlantirish mexanizmlari bilan bog'lash amaliyotini yo'lga qo'yish. Bu yuzasidan Qo'mitaning inson resurslari rivojlantirish va boshqarish bo'limi tomonidan Qo'mita hududiy organlari, markaziy apparat tarkibiy bo'linmalari hamda tizim tashkilotlari rahbarlari uchun lavozim yo'riqnomalarini ishlab chiqishda aniq talablarni belgilash, shuningdek Qo'mita imidjini shakllantirishda	Qo'mita hududiy organlari, markaziy apparat tarkibiy bo'linmalari hamda tizim tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan faoliyat natijalarini tahlil qilish, baholash va ularni keyslar ko'rinishida taqdim etish bo'yicha yagona yondashuvni belgilaydigan uslubiy tavsiyalarni Qo'mitaning xodimlari ish samaradorligi va natijaviyligini baholab shakllantiradigan tegishli tarkibiy bo'linma tomonidan ushbu jarayonni doimiy monitoring qilish mexanizmini joriy etish.	2026-yil 4-chorak	Barcha tarkibiy bo'linmalari, Jamoatchilik bilan aloqalarni tashkil etish xizmati

T/r	Xavf nomi	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Amalga oshirish muddati	Mas'ul tarkibiy bo'linma
		barcha xodimlarning shaxsiy mas'ulligini qayd etishi.			
19	Ustun mavqega ega deb e'tirof etilgan xo'jalik yurituvchi subyektlarining monopol mahsulotlariga qo'llanilgan narxlar to'g'risidagi ma'lumotlarni Qo'mitaga har chorakda taqdim etib borishi qonunchilikda belgilangan bo'lsa-da, ayrim subyektlar ma'lumotlarni taqdim etmasligi yoki kech taqdim etishi holatlari mavjud. Shuningdek, Qo'mita ma'lumotlarni xat orqali so'rov chiqarilganda, Biznes ombudsman organli tomonidan tekshirish sifatida qaralishi va Qo'mita xodimlarini ma'muriy javobgarlikka tortilishi holatlari mavjud.	Ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan tarzda taqdim etishni va ularni tahlil qilishda sun'iy intellektdan foydalanishni yo'lga qo'yish	1. Qo'mitaning "Fair Tech" axborot tizimida ma'lumotlar xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan kiritib borilishi mumkin bo'lgan tizimni shakllantirish; 2. Tizimga asosida aniqlangan narxlarning monitoringini amalga oshirish va narxlarning oshirilishini aniqlashda sun'iy intellekt faoliyatini joriy etish.	2026-yil sentyabr	Qo'mita huzuridagi "Raqamli transformatsiya va outsorsing markazi" DM Monopoliyaga qarshi tartibga solish, narxlar va tariflarni nazorat qilish boshqarmasi
20	Ustun mavqeni va ustun muzokara kuchini suiiste'mol qilinganligi natijasida Raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablarini buzgan davriga tovarni realizatsiya qilishdan olingan tushumni aniqlan imkoniyati yo'q	Soliq qo'mitasi bilan tegishli ma'lumotlarni almashinuvi bo'yicha hamkorlik memorandumini tuzish	Soliq qo'mitasi Qo'mitaning "Fair Tech" axborot tizimida xo'jalik yurituvchi subyektlarning realizatsiya qilingan tovar (ish, xizmat)lari bo'yicha tushumi to'g'risidagi ma'lumotlarni integratsiyasini takomillashtirish, bunda kerakli davrlarni belgilash funksiyasini yo'lga qo'yish, shuningdek, ayrim yirik korxonalarning ma'lumotlarini ko'rishga bo'lgan cheklovlarni olib tashlash	2026-yil avgust	
21	Tarkibiy va hududiy bo'linmalardan kelib tushadigan ma'lumotlarning kechikishi yoki to'liq taqdim etmaslik	Hisobotlarni elektronlashtirish to'liq	Qo'mitaning "Fair Tech" dasturiy ta'minoti orqali hisobotlarni shakllantirish	2026-yil mart oyida	Strategik rejalashtirish, metodologiya va transformatsiya bo'limi

T/r	Xavf nomi	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Amalga oshirish muddati	Mas'ul tarkibiy bo'linma
22	Dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlarining ulgurji va chakana savdosi bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar ular narxini davlat tomonidan tartibga solishning belgilangan tartibiga rioya etishini nazorat qilishda korrupsiyaviy xavfi	Raqobat qo'mitasi dori vositalariga belgilangan ustamalarni yuqori qo'llanilgani bo'yicha Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi tomonidan o'tkazilgan tekshirishda aniqlangan asossiz olingan daromadni qaytarishda ish qo'zg'atmasdan, qayta tekshiruv o'tkazmasdan ma'muriy huquqbuzarlik bo'yicha avtomatik ravishda huquqbuzar ishtirokisiz qaror chiqarish va ko'rsatma berishni joriy etish.	O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali qayd etilgan retsept bilan beriladigan dori vositalarini narxlarini asossiz ravishda oshirganlikka oid huquqbuzarliklarni ko'rib chiqishni nazarda tutuvchi qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish	2026-yil iyul	Tibbiyot va Farmatsevtika sohasida iste'molchilar huquqlarini himoya bo'limi
23	Bo'lim xodimlarining e'tiborsizligi sababli, iste'molchilardan kelib tushgan murojaatlarning ko'rib chiqish muddatlari o'tkazib yuborilishi.	Murojaatlar to'planib qolmasligi va muddati o'tkazib yuborilmasligi uchun kunlik nazorat qilish.	1. Har kuni ish boshlanganidan so'ng, 10 daqiqalik "Ijro intizomi" tahlilini o'tkazish. 2. Bo'lim boshlig'i har bir xodimning ish yig'majildidagi muddati yaqinlashgan murojaatlarni ko'zdan kechiradi. 3. Agar murojaat murakkab bo'lsa va muddat yetishmasligi yuzaga kelsa, darhol murojaatchiga O'RQ-445-son Qonun talablariga ko'ra xabar qilinadi (oralik xati yuboriladi) va (yoki) murojaatni muddatini uzaytirish choralari ko'riladi. Lozim hollarda qo'shimcha kuch (boshqa xodim) jalb qilinadi. 4. Mas'ul xodim uzrli sabablarga ko'ra ishda bo'lmagan hollarda, murojaatlar bo'limning boshqa xodimi tomonidan "to'xtab qolmasligi" ta'minlanadi.	2026-yilning 2-choragi	Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish, qurilish va transport sohasida iste'molchilar huquqlarini himoya qilish bo'limi
24	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 8 fevraldagi 59-son qarori bilan tasdiqlangan "Chakana savdo obyektlarida xalq iste'moli tovarlarining nazorat xaridini tashkillashtirish va ularni ekspertizadan (testdan) o'tkazish tartibi	"Nazorat xaridlari" jarayonida xarid qilingan mahsulot (tovar) larni ekspertizadan o'tkazishda laboratoriya natijalarini xolislik (haqqoniylik) bilan chiqarilishiga erishish uchun muqobil	Xususiy laboratoriyalarda ekspertiza o'tkazish uchun Qo'mitaning xududiy boshqarmalariga ajratiladigan mablag'larni ko'paytirish.	2026-yil 1 mart	Savdo, umumiy ovqatlanish va turizm sohasida iste'molchilar huquqlarini himoya qilish

T/r	Xavf nomi	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Amalga oshirish muddati	Mas’ul tarkibiy bo‘linma
	to‘g‘risida”gi nizom ijrosini ta’minlash maqsadida o‘tkaziladigan "Nazorat xaridlari" jarayonida xarid qilingan mahsulot (tovar) larni ekspertizadan o‘tkazishda laboratoriya natijalarini xolislik (haqqoniylik) bilan chiqarilishidagi xavf	laborotoriyalarda ham tekshirtirish			bo‘limi